Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Dilfuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	



ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH.....	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiqudirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutulibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVAYLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH.....	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIY-OVQAT BOZORINING INSTITUTIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SURATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	



MAMLAKATNING HUDUDIIY IQTISODIIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELII	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH.....	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA).....	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhammadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIYAVIIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIYAVIIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIIYALAR VA IQTISODIIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Solliq va solliqqa tortish” kafedrası

katta o'qituvchisi

Ocid: 0009-0005-7188-3925

n.qurbonov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalarni jalb etishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Xususan, investitsion muhitning hozirgi holati, investorlar ishonchini oshirish omillari va aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni shakllantirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash yo'llari yoritiladi. Tadqiqotda xorijiy tajriba tahlili asosida O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada amaliy jihatdan aksiyadorlik jamiyatlarining ochiqligi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, dividend siyosatining investitsiya oqimiga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, investitsiyalar, investitsiya faoliyati, moliyalashtirish, fond bozori, qimmatli qog'ozlar, investitsion banklar, fond birjasi, moliya bozorlari, aksiyalar, obligasiyalar, depozit sertifikatlar.

Abstract. this article analyzes the current issues of attracting investments in financing the activities of joint-stock companies. In particular, the current state of the investment climate, factors of increasing investor confidence and ways to ensure investment attractiveness through the formation of effective corporate governance in joint-stock companies will be highlighted. Based on the analysis of foreign experience, the study developed suggestions and recommendations that can be applied in Uzbekistan. The article also examines the openness of joint-stock companies, transparency of financial reporting, and the impact of dividend policy on investment flows from a practical point of view.

Key words: joint stock companies, investments, investment activity, financing, stock market, securities, investment banks, stock exchange, financial markets, stocks, bonds, certificates of deposit.

Аннотация. в данной статье анализируются актуальные вопросы привлечения инвестиций при финансировании деятельности акционерных обществ. В частности, будет освещено современное состояние инвестиционного климата, факторы повышения доверия инвесторов и пути обеспечения инвестиционной привлекательности путем формирования эффективного корпоративного управления в акционерных обществах. В исследовании на основе анализа зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации, которые могут быть применены в условиях Узбекистана. Также в статье с практической точки зрения рассматривается открытость акционерных обществ, прозрачность финансовой отчетности, влияние дивидендной политики на инвестиционные потоки.

Ключевые слова: акционерные общества, инвестиции, инвестиционная деятельность, финансирование, фондовый рынок, ценные бумаги, инвестиционные банки, фондовая биржа, финансовые рынки, акции, облигации, депозитные сертификаты.

KIRISH

Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va raqobatbardosh ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishda xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining ochiqligini ta'minlash, ularning jahon investitsiya maydoniga integratsiyalashuvini kuchaytirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.



Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni jalb etish samaradorligi pastligicha qolmoqda. Bu esa investorlar ishonchining yetarli darajada shakllanmagani, moliyaviy shaffoflikning zaifligi hamda korporativ boshqaruv tizimining yetuk emasligi bilan bog'liqdir. Shu boisdan, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari misolida bu yo'nalishdagi tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu muammo atroflicha tahlil qilinadi hamda mavjud holatni yaxshilash uchun ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi.

Investitsiyalarni jalb etishda samarali infratuzilma, qulay soliq va huquqiy rejim, shuningdek, axborotning ochiqligi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ularning qanchalik investitsion jozibadorligiga bog'liqdir. Investorlar esa faqatgina moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki kompaniyaning boshqaruv sifati, tavakkalchilik darajasi va korporativ madaniyatiga ham e'tibor qaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, u ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport hajmini oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasida samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqish va uni izchil amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur siyosat natijasida yildan-yilga investitsiyalar hajmining ortib borishi, aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

"Investitsiya" atamasi turli ilmiy manbalarda bir-biridan farq qiluvchi ta'riflar bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda, odatda, investitsiyalar kelgusida daromad olish maqsadida joriy davrda iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar sifatida talqin etiladi. Masalan, iqtisodiy lug'atlarda investitsiyalar "kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida turli tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisi" sifatida izohlangan. [1]

P. Masse investitsiyani iqtisodiy ehtiyojlarni hozirda emas, balki kelajakda qondirishga qaratilgan faoliyat sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, bu jarayon muayyan iste'molni hozirgi kunda amalga oshirmasdan, uni investitsiya qilingan ne'matlar yordamida kelajakda amalga oshirishga yo'naltirishdan iboratdir. [2]

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari, xususan, L.I. Abalkin tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiy inqirozning oldini olishda investitsiyalar muhim omil hisoblanadi. Abalkinning ta'kidlashicha, barqaror iqtisodiy o'sish uchun, avvalo, ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatish, ishlab chiqarish vositalarining eskirishiga qarshi kurashish va investitsiyaviy faollikni oshirish lozim. U, ayniqsa, ishlab chiqarish infratuzilmasini zamonaviylashtirish va asosiy vositalarni yangilashda investitsiyalarsiz rivojlanish mumkin emasligini qayd etadi. [3].

Akademik fikrlar investitsiya tushunchasining ko'p qirrali va murakkab mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayrim manbalarda investitsiyalar – bu faoliyatning o'zi (ya'ni investitsiyalash), boshqalarida esa uning natijasi (ya'ni investitsiya ob'ekti) sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, investitsiya manbalari ham ichki va tashqi manbalarga ajratilib, ularning amalga oshirish mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Tashqi investitsiyalar konvertatsiya, valyuta risklari, daromad repatriatsiyasi kabi muammolar bilan bog'liq bo'lsa, ichki investitsiyalar esa asosan mahalliy moliyaviy resurslarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiya tushunchasi quyidagicha yoritilgan: "Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlardir. Investitsiya faoliyati esa – investitsiya sub'yektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuasidir". [4].

Mazkur ta'rif soddalashtirilgan bo'lsa-da, investitsiyaning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy mohiyatini to'liq qamrab oladi, biroq amaliy nuqtai nazardan uni maqsadli kengaytirish talab etiladi. Chunki ba'zi ta'riflarda investitsion qo'yilmalar, investitsion resurslar va investitsiya obyektlari tushunchalari chalkash holatda qo'llanilgan. Bu esa, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni samarali jalb etish va ularni boshqarish jarayonida aniqlik yetishmasligiga olib keladi.

UNCTAD tomonidan O'zbekiston bo'yicha tayyorlangan hisobotda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda aksiyadorlik jamiyatlarining roli, huquqiy himoya darajasi, aksionerlar huquqlari va korporativ boshqaruv tizimi yoritilgan. Investorlarning eng katta xavotiri - mulk huquqlari va repatriatsiya kafolatlari bilan bog'liq. Ularni hal etish orqali sarmoyador ishonchi ortadi. [5]

"Korporativ boshqaruv kodeksi" da aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv, nazorat, aksiyadorlar bilan munosabatlar, axborot ochiqligi kabi sohalarni tartibga soladi. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan bo'lib, samarali korporativ boshqaruv – investorlar ishonchini ta'minlovchi vosita sifatida ko'rsatilgan. [6]

Xulosa shuki, investitsiya tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlili, uning nazariy va amaliy jihatlari, manbalarining diversifikatsiyasi, risklar va daromadlilik omillari orqali chuqurroq yondashishni talab etadi.



Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini modernizatsiya qilishda investitsiyalarni jalb etish masalasi puxta iqtisodiy tahlil va mukammal qonunchilik asosida olib borilishi zarur.

1-jadval. Adabiyotlar sharhi yuzasidan asosiy ilmiy xulosalar¹

Yo'nalish	Muallif	Asosiy fikr
Investitsiya nazariyasi	P. Masse, Abalkin	Investitsiya iqtisodiy barqarorlik va o'sishning tayanchi
Aksiyadorlik boshqaruvi	Tursunov F.U., Azizov Sh.	Korporativ boshqaruv investitsion jozibadorlikni belgilaydi
O'zbekiston tajribasi	Qosimova G., Mahmudov A.	Tashqi sarmoyadorlar uchun huquqiy muhit va kafolatlar yetishmaydi
Xalqaro yondashuvlar	UNCTAD, OECD	Investorlar ishonchi uchun shaffoflik, egalik huquqi va javobgarlik zarur

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni jalb etish uchun korporativ boshqaruvning shaffofligi va aksiyadorlar huquqlarining kafolatlanishi muhim o'rin tutadi. Davlat siyosati (imtiyozlar, kafolatlar) orqali ichki va tashqi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratilishi muhimahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba (OECD, UNCTAD) aksiyadorlik jamiyatlarida sarmoyador ishonchini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Milliy taraqqiyotning navbatdagi bosqichi sifatida mamlakatimizda islohotlar va modernizatsiya jarayonlari tizimli va izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon xaritasida mustahkam o'rin egallagan qisqa tarixiy davr mobaynida demokratik jamiyatni barpo etish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida sezilarli ishlar amalga oshirilgan va salmoqli natijalar qo'lga kiritilgan.

Mazkur muvaffaqiyatlarda davlat rahbarining rivojlanish strategiyasini puxta ishlab chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadlari, vazifalari va ularni amalga oshirish yo'llarini aniq belgilab berishi muhim omil bo'lgan. Natijada, respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari izchil amalga oshirilib, iqtisodiy o'sishning yuqori, barqaror va muvozanatli sur'atlari hamda makroiqtisodiy barqarorlik tendensiyalari mustahkamlanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholining turmush darajasining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilmoqda.

1-jadval. Mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori², mlrd. so'mda

Hududlar	Yillar					2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	160144,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	4208,6
Andijon viloyati	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	11187
Buxoro viloyati	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	20663,9
Jizzax viloyati	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	7070
Qashqadaryo viloyati	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	-3324,5
Navoiy viloyati	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	8752,3
Samarqand viloyati	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	15450,4
Surxondaryo viloyati	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	6472,6
Sirdaryo viloyati	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	10002,7
Toshkent viloyati	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	27355,4
Farg'ona viloyati	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	11269,6
Xorazm viloyati	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	6634,1
Toshkent shahri	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	28685,6

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Ushbu jadvalda 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi (mln. so'm) ko'rsatilgan. Shuningdek, 2023-yil ko'rsatkichlarining 2019-yilga nisbatan o'zgarishi ham (qo'shilish yoki kamayish miqdorida) alohida ustunda taqdim etilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda investitsiyalar hajmi O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 356071,4 mln. so'mga yetib, 2019-yilga nisbatan 160144,1 mln. so'mga ortgan. Bu mamlakat bo'ylab investitsiya faolligining sezilarli o'sishini ko'rsatadi. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish Toshkent viloyatida (27355,4 mln. so'm) va Toshkent shahrida (28685,6 mln. so'm) qayd etilgan. Bu hududlar iqtisodiy jihatdan mamlakatning yetakchi markazlari bo'lib, investitsiyalarning katta qismi shu hududlarga yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, Samarqand viloyati (15450,4 mln. so'm), Buxoro viloyati (20663,9 mln. so'm), Andijon viloyati (11187 mln. so'm) va Sirdaryo viloyatida (10002,7 mln. so'm) ham investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. Qashqadaryo viloyati esa yagona hudud sifatida investitsiyalar hajmi kamaygan hudud bo'lib, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan -3324,5 mln. so'mga pasayish kuzatilgan. Bu hududda iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlar yoki boshqa omillar investitsiya oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi.

Jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekistonning turli hududlarida investitsiya siyosati samaradorligini tahlil qilish hamda hududlar iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

2-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya unvestitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili³

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot	114,4	111,9	110,6	111,8	108	-6,4
Inflyatsiya darajasi	13	14,3	11,6	9,8	12,2	-0,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	138,1	95,6	102,9	100,2	123,4	-14,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi yillik dinamikasi	119	109,1	112,4	110,3	108,1	-10,9
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi	13,8	7,6	8	6,6	3,8	-10
Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	24370,2

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, investitsiya loyihalarining moliyaviy jihatdan ta'minlanishi mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy muhit, inflyatsiya darajasi, moliyaviy resurslarning mavjudligi va investitsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Quyida keltirilgan ko'rsatkichlar asosida 2019–2023-yillar davomidagi asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sish sur'ati 2019-yilda 114,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 108 foizgacha pasaygan. Bu 6,4 foiz bandga kamayish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga investitsion ishonch va iqtisodiy o'sish istiqbollarinin qisqarishiga olib kelishi mumkin. YIMning pasayishi ichki talabning pasayishi, rentabellikning kamayishi va foyda marjasining qisqarishi kabi omillar orqali investitsiya loyihalarining moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Inflyatsiya darajasi 2019-yildagi 13 foizdan 2023-yilda 12,2 foizga tushgan bo'lsa-da, bu o'zgarish nisbatan zaif. O'rta muddatli inflyatsiya barqarorligi, moliyalashtirishda ishonchni kuchaytirishga xizmat qilsa-da, umumiy investitsiyaviy xavf darajasi saqlanib qolmoqda. Yuqori inflyatsion kutilmalar investitsiya qiymatini kamaytiradi va moliyaviy resurslarni uzoq muddatga jalb etishni murakkablashtiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishi 2019-yilda 138,1 foiz bo'lib, 2023-yilda 123,4 foizga kamaygan. Bu asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning kamayishini bildiradi. Bunday holat, ayniqsa, uzoq muddatli va yuqori kapitallikdagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishni moliyaviy jihatdan qiyinlashtiradi. Shuningdek, bu tendensiya aksiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarish bazasining kengayishini sekinlashtiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari narx indeksi 2019-yildagi 119 foizdan 2023-yilda 108,1 foizga tushishi investitsiya faoliyatida qurilish va infratuzilma xarajatlarnin nisbatan barqarorlashganidan dalolat beradi. Biroq, bu holat investitsiya qiymatining o'sishi bilan bir qatorda, loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda narx indeksleri asosida real qiymatdagi pasayishlarni ham inobatga olishni taqozo etadi.



Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining ulushi 2019-yildagi 13,8 foizdan 2023-yilda 3,8 foizgacha kamaygan. Bu -10 foizlik keskin pasayish, aksiyadorlik jamiyatlari uchun asosiy moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lgan kredit resurslarining qisqarishini ko'rsatadi. Tijorat banklari tomonidan sarmoyalarni moliyalashtirish hajmining pasayishi, loyihalarning real sektor uchun jozibadorligi yoki kredit xavfining ortganligidan dalolat beradi. Natijada, ko'plab investitsion loyihalar tashqi moliyaviy ta'minotdan mahrum qolmoqda.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2019-yildagi 10891,7 mlrd. so'mdan 2023-yilda 35261,9 mlrd. so'mgacha oshgan, ya'ni 24370,2 mlrd. so'mlik o'sish kuzatilgan. Axborot texnologiyalari sohasidagi bunday sur'atlar aksiyadorlik jamiyatlarining raqamli transformatsiyasi va investitsiyalarning texnologik yo'nalishlarga ko'chayotganidan dalolat beradi. Mazkur sohadagi jadal rivojlanish yangi turdagi investitsion loyihalar IT infratuzilma, texnologik xizmatlar va raqamli xizmatlarni moliyalashtirish uchun muhim poydevor yaratmoqda.

Tahlil qilingan ko'rsatkichlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin: investitsiyalarning umumiy o'sish sur'atlari pasaymoqda, bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bank kreditlari va qarz mablag'lari ulushining kamayishi investitsiya loyihalarining tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Biroq, raqamli infratuzilma va AKT sohasida kuzatilayotgan jadal o'sish yangi investitsion yo'nalishlarning shakllanishi va yuqori rentabellikka ega bo'lgan loyihalarni yuzaga keltirish imkonini bermoqda. Inflyatsiya darajasining nisbiy pasayishi esa makroiqtisodiy barqarorlik fonida uzoq muddatli sarmoyalarning jozibadorligini saqlab turuvchi omil sifatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun kreditlash mexanizmlarini faollashtirish, kapital bozorlarini rivojlantirish, hamda texnologik sohalarga yo'naltirilgan strategik investitsiyalarni rag'batlantirish zarur.

3-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro obligatsiyalarinn joylashtirish bo'yicha anderrayterlar guruhi⁴

Emitent	Obligatsiya turi	Anderrayterlar guruhi
"O'zsanoatqurilishbank" ATB	Evroobligasiya	JP Morgan, Citigroup, Commerzbank, Raiffeisen Bank
"O'zmilliybank" AJ	Evroobligasiya	Citibank, Natixis, SMBC Nikko, Gazprombank
"Ipotekabank" AJ	Evroobligasiya	J.P. Morgan, Raiffeisen Bank International AG, MUFG, Societe Gncralc
"Ipotekabank" ATIB	Xalqaro obligasiya, so'mda	J.P.Morgan Chase
"O'zAvtoMotors" AJ	Evroobligasiya	Citigroup, MUFG, Natixis. Raiffeisen Bank International
"O'zbekneftgaz" AJ	Evroobligasiya	Bank GPB International, Citigroup Global Markets, J.P. Morgan Securities i Mitsubishi UFG Securities EMEA

Qayd etish kerakki, Mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan so'nggi yillarda xalqaro moliya bozorlariga chiqish va xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha amaliy harakatlar faollashib bormoqda. Xususan, xalqaro obligatsiyalar (jumladan, evroobligatsiyalar va milliy valyutadagi obligatsiyalar) chiqarish orqali global investorlar e'tiborini jalb qilish va investitsion jozibadorlikni oshirishga intilish ko'zga tashlanmoqda.

1. Xalqaro moliya bozorlariga integratsiya va anderrayterlik institutlarining roli: jadvalda keltirilganidek, bir qator yirik aksiyadorlik jamiyatlari – xususan "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ, "Ipotekabank" AJ, "O'zAvtoMotors" AJ va "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar uchun anderrayterlik xizmatlarini dunyoning yetakchi investitsion banklari amalga oshirmoqda. Bu anderrayterlar orasida: J.P. Morgan, Citigroup, Commerzbank, Raiffeisen Bank, MUFG (Mitsubishi UFJ Financial Group), Societe Generale, SMBC Nikko, Natixis, Gazprombank, Bank GPB International kabi yirik moliyaviy institutlar mavjud. Ushbu moliya institutlarining anderrayter sifatida jalb etilishi O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro moliya bozori ishtirokchisi sifatidagi nufuzini oshiradi va emitentlar uchun keng auditoriyali investorlar bazasiga kirish imkonini yaratadi.

2. Emitentlarning tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi: bank sektori vakillari (O'zsanoatqurilishbank, O'zmilliybank, Ipotekabank) – xalqaro kapital bozori orqali xorijiy investorlarni jalb qilishda yetakchilik qilmoqda. Bu, bank tizimining investitsion salohiyati, kredit portfeli hajmi va xalqaro reyting agentliklari tomonidan ijobiy baholanayotgan moliyaviy barqarorligi bilan izohlanadi. Real sektor vakillari (O'zAvtoMotors, O'zbekneftgaz) – ishlab chiqarish, energetika va neft-gaz tarmoqlarida faoliyat yurituvchi yirik korxonalar ham xorijiy obligatsiyalar chiqarish orqali kapital jalb qilish mexanizmlaridan foydalanmoqda.

3. Valyuta va vosita diversifikatsiyasi: e'tiborga molik jihatlardan biri shuki, "Ipotekabank" ATIB milliy valyuta – so'mda xalqaro obligatsiyalar joylashtirish amaliyotini amalga oshirgan. Bu holat, so'mning nisbatan

4 Muallif ishlanmasi



barqarorligi va lokal investorlar uchun likvid moliyaviy instrumentlar bozorining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

4. Xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali erishiladigan afzalliklar: uzoq muddatli, barqaror va yirik hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb qilish; aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy nufuzini oshirish; global investorlar auditoriyasida tan olinishi; moliyaviy axborotlar shaffofligi va korporativ boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiluvchi talablarning ortishi.

5. Anderrayterlar tanlovi va investorlar ishonchi: anderrayter sifatida dunyo miqyosida tan olingan moliya institutlarining jalb qilinishi, nafaqat obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirish, balki investorlar ishonchini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan anderrayterlar emitent va investor o'rtasida vositachilik qilgan holda moliyaviy instrumentning muvaffaqiyatli taqsimlanishini ta'minlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozorlariga chiqish orqali: kapital bozorining institutsional rivojlanishiga hissa qo'shmoqda; uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda; korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va investorlar bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelgusida bu kabi amaliyotlarni kengaytirish uchun O'zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro reytinglarni yaxshilash va moliyaviy axborotlarning oshkoraligini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatini modernizatsiya qilish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarni jalb etish muhim strategik yo'nalish bo'lib qolmoqda. Investitsion faollik nafaqat ishlab chiqarish hajmining oshishi va texnologik yangilanishni, balki fond bozori rivoji, moliyaviy barqarorlik va korporativ boshqaruv sifatining oshishini ham ta'minlaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapital jalb etishning asosiy vositalari yangi aksiyalarni joylashtirish, evroobligatsiyalar chiqarish, venchur investitsiyalar, davlat qo'llab-quvvatlov dasturlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishdan iborat. Xalqaro moliya bozorlari orqali investitsiyalar jalb qilish amaliyoti – kompaniyalarning moliyaviy shaffofligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda korxonalarning ustuvor investitsion loyihalarini moliyalashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, ustav kapitalini oshirish, obligatsiyalar chiqarish va bank kreditlaridan foydalanishda mavjud iqtisodiy, huquqiy va institutsional omillar chuqur tahlil etilishi, xatarlar minimallashtirilishi va strategik rejalashtirishga asoslangan yondashuvlar qo'llanishi lozim. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida ularning o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Investitsiya jarayonlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan korporativ boshqaruv sifati, moliyaviy axborotning oshkoraligi, marketing strategiyalarining samaradorligi va investorlarga taklif etilayotgan loyihalarning iqtisodiy asoslanganligiga bog'liqdir. Shu sababli, mavjud imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda institutsional infratuzilmani takomillashtirish investitsion muhitni yaxshilashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish respublika iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlariga mos keluvchi, bozor talablariga javob beradigan, samarali va barqaror rivojlanish omili sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Финансово-кредитный словарь. Т. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - С. 470.
2. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. – М.: Издательство —ДЕЛО. -2002. С.22.
3. Ивасенко А.Г. Иностранные инвестиции: учебное пособие / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова. – М.: КНОРУС, 2010. – 272 с.
4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: учеб. пособие / М.А. Николаев. -Финансы и статистика; ИНФРА-М.- 336 с.
5. Кожухур В.М. Практикум по иностранным инвестициям. – 2-е изд. – М.: Издательско – торговая корпорация «Дашков и К», 2009. – 256 с.
6. Браун К. Маленькая книжка, которая научит вас инвестировать / К. Браун; пер. с англ. П.А. Самсонов. – Минск: «Попурри», 2009. – 240 с.;
7. Абалкин Л.И. Логика экономического роста. -М.: Институт экономики РАН, 2002. С. 228.
8. Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонунининг янги таҳрири –Т.: -Адолат, 2019. 13 б.
9. "Korporativ boshqaruv kodeksi" – O'zbekiston Respublikasi (2015). <https://unctad.org/publication/investment-policy-review-uzbekistan>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
